

Investitsiyalar va qurilish

I-CHORAK


2014 yil yanvar-martda respublikaning asosiy kapitalini ko'paytirishga 662,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi, o'sish sur'ati 136,0 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

Jami	662,3	2,2	26,5	59,7	5,4	6,1	0,1	-
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:								
davlat	66,9	21,8	12,5	2,2	1,7	60,1	1,7	-
nodavlat	595,4	-	28,0	66,2	5,8	-	-	-

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni o'zlashtirish quyidagi ma'lumotlarda ifodalanadi:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida



Iqtisodiyot tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rinishda:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	662,3	100,0	100,0
Ishlab chiqarish tarmoqlari	565,7	85,4	84,7
Sanoat	495,6	74,8	75,5
shu jumladan:			
-yoqilg'i-energetika	469,8	70,9	66,3
-metallurgiya	0,01	0,01	
-kime va neft-kimyanoat	6,0	0,9	0,9
-mashinasozlik	0,03	0,01	0,4
-engil sanoat	16,5	2,5	7,6
-oziq-ovqat sanoati	2,0	0,3	0,1
-qurilish materiallari	0,9	0,2	-
-boshqalar			
Qishloq xo'jaligi	10,7	1,6	2,1
Qurilish	0,9	0,1	0,1
Transport va aloqa	35,9	5,4	2,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	5,8	0,9	0,9
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	17,2	2,6	3,8
Noishlab chiqarish tarmoqlari	96,6	14,6	15,3
Uy-joy qurilish	47,8	7,2	10,1
Kommunal xo'jalik	28,9	4,4	1,1
Sog'liqni saqlash	6,0	0,9	1,5
Ta'lim	7,4	1,1	1,3

Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari

6,5

1,0

1,3

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 565,7 mlrd. so'mi yoki 85,4 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, noishlab chiqarish tarmoqlariga 96,6 mlrd. so'm yoki 14,6 foizi yo'naltirildi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 47,8 mlrd. so'mi yoki 7,2 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2014 yil yanvar-martda umumiy maydoni 89,0 ming kv.m. bo'lgan 743 ta xonadon (2013 yil yanvar-martga nisbatan 83,2 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 15,2 ming kv.m. (85,3 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga umumta'lim maktablarni, musiqa va san'at maktablarni hamda bolalar sporti ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya ishlari uchun 5,3 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 5,5 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 71,6 foizini tashkil qildi.

Kasb-hunar kollejarini rekonstruksiya qilish ishlarida 0,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 0,4 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 5,4 foizini tashkil qildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari uchun 3,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,8 foizini va sog'liqni saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 61,7 foizini tashkil qildi.

Kommunal qurilish sohasida 7,0 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 7,6 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi, bu 2013 yil yanvar-martga nisbatan mos ravishda 83,3 foizni va 93,8 foizni tashkil qildi. Foydalanishga topshirilgan ichimlik suvi tarmoqlarining 35,7 foizi va gaz tarmoqlarining 44,7 foizi qishloq joylariga to'g'ri keldi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga va rekonstruksiyasiga 3,9 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobiga 0,1 mlrd. so'm, davlat byudjeti hisobidan 3,6 mlrd. so'm, chet el investorlari mablag'laridan 0,2 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag'lari hisobiga 0,1 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.


Qurilish faoliyati. 2014 yil yanvar-martda 87,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 85,5 foizi yangi qurilish, korxonalarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 11,8 foizi kapital, 2,7 foizi joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 79,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, qurilish ishlarining umumiy hajmida 91,2 foizni (2013 yil yanvar-martga nisbatan 0,6 foizga kamaygan) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



- Davlat mulki
- Fuqarolar xususiy mulki
- Xo'jalik birlashmalari mulki
- Qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki
- Boshqa mulkchilik shakllari

II-CHORAK


2014 yil yanvar-iyunda respublikaning asosiy kapitalini ko'paytirishga 1553,5 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi, o'sish sur'ati 153,8 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

Jami	1553,5	3,3	27,6	56,8	6,5	5,4	0,4	-
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:								
davlat	176,1	29,5	14,7	2,1	2,6	47,8	3,3	-
nodavlat	1377,4	-	29,2	63,8	7,0	-	-	-

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni o'zlashtirish quyidagi ma'lumotlarda ifodalanadi:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida



Iqtisodiyot tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rinishda:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	1553,5	100,0	100,0
Ishlab chiqarish tarmoqlari	1209,3	77,8	73,9
Sanoat	1053,4	67,2	57,8
shu jumladan:			
-yoqilg'i-energetika	1010,3	65,0	49,7
-metallurgiya	0,02	0,01	0,04
-kime va neft-kimyo sanoati	27,2	1,7	1,5
-mashinasozlik	0,7	0,05	0,5
-engil sanoat	4,3	0,3	5,1
-oziq-ovqat sanoati	4,3	0,3	0,1
-qurilish materiallari	6,2	0,4	0,5
-boshqalar			
Qishloq xo'jaligi	26,1	1,6	2,6
Qurilish	7,0	0,4	0,4
Transport va aloqa	58,9	3,8	7,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	14,8	1,0	1,6
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	49,5	3,2	4,0
Noishlab chiqarish tarmoqlari	344,2	22,2	26,1
Uy-joy qurilish	198,9	12,8	16,9
Kommunal xo'jalik	71,2	4,6	1,5
Sog'liqni saqlash	19,9	1,3	2,6
Ta'lim	25,4	1,6	2,5
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	28,8	1,9	2,6

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 1209,3 mlrd. so'mi yoki 77,8 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, noishlab chiqarish tarmoqlariga 344,2 mlrd. so'm yoki 22,2 foizi yo'naltirildi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 198,9 mlrd. so'mi yoki 12,8 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2014 yil yanvar-iyunda umumiy maydoni 314,8 ming kv.m. bo'lgan 2198 ta xonadon (2013 yil yanvar-iyunga nisbatan 97,5 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 89,5 ming kv.m. (157,0 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va chet el investorlari mablag'lari hisobiga umumta'lim maktablarni, musiqa va san'at maktablarni hamda bolalar sporti ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya ishlari uchun 18,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 5,5 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 74,0 foizini tashkil qilib, 256 o'quv o'rinlariga ega 4ta, 140 o'quv o'rinlariga ega 1ta ixtisoslashtirilgan maktablarda rekonstruksiya ishlari tugatilib, 486 kv. m. kувvatga ega 3 bolalar sport ob'ektlari yagidan ishga tushirildi.

Bundan tashqari 7ta maktab va 1ta bolalar sporti ob'ektlari kapital ta'mirdan chiqarildi.

Oliy ta'lim muassasalarini, kasb-hunar kollejlarini va akademik litseylarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlarida 8,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2,6 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 35,0 foizini tashkil qildi.

Bundan tashkari kasb-hunar kollejlarini va akademik litseylarni kapital ta'mirlashda 5,3 mlrd.sum mablag' uzlashtirilib, 4 ta ob'ekt ta'mirdan chikarildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari uchun 13,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,9 foizini va sog'liqni saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 67,3 foizini tashkil qildi.

Kommunal qurilish sohasida 114,4 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 23,4 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi, bu 2013 yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 102,2 foizni va 125,1 foizni tashkil qildi. Foydalanishga topshirilgan ichimlik suvi tarmoqlarining 44,3 foizi va gaz tarmoqlarining 32,5 foizi qishloq joylariga to'g'ri keldi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga va rekonstruksiyasiga 9,2 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobiga 0,4 mlrd. so'm, davlat byudjeti hisobidan 8,1 mlrd. so'm, chet el investorlari mablag'laridan 0,7 mlrd.so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag'lari hisobiga 0,4 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati. 2014 yil yanvar-iyunda 410,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 foizni tashkil etdi.


Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,1 foizi yangi qurilish, korxonalarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 13,6 foizi kapital, 5,3 foizi joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 382,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, qurilish ishlarining umumiy hajmida 93,1 foizni (2013 yil yanvar-iyunga nisbatan 3,9 foizga kupaygan) tashkil qildi.


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida

2013 y.
yanvar-iyun



2014 y.
yanvar-iyun



- Davlat mulki
- Fuqarolar xususiy mulki
- Xo'jalik birlashmalari mulki
- Qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki
- Boshqa mulkchilik shakllari

III-CHORAK

2014 yil yanvar-sentyabrda respublikaning asosiy kapitalini ko'paytirishga 2902,6 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi, o'sish sur'ati 129,1 foizni tashkil qildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

Jami	2902,6	2,6	29,2	55,0	4,0	6,4	0,3	2,5
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:								
davlat	332,3	22,3	16,1	2,0	1,8	55,4	2,4	-
nodavlat	2570,3	-	30,9	61,9	4,3	0,1	-	2,8


Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni o'zlashtirish quyidagi ma'lumotlarda ifodalanadi:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida

2013 yil
yanvar-sentyabr



2014 yil
yanvar-sentyabr



- Qurilish va montaj ishlari
- Mashina, dastgoh va jihozlar
- Boshqalar

Iqtisodiyot tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rinishda:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	2902,6	100,0	100,0
Ishlab chiqarish tarmoqlari	2397,9	82,6	80,7
Sanoat	2052,0	70,7	69,7
shu jumladan:			
-yoqilg'i-energetika	1985,1	68,4	65,3
-metallurgiya	0,04	0,01	
-kime va neft-kimyo sanoati	42,6	1,5	0,8
-mashinasozlik	1,1	0,04	0,3
-engil sanoat	5,4	0,2	2,4
-ozuq-ovqat sanoati	7,9	0,3	0,1
-qurilish materiallari	8,6	0,3	0,4
-boshqalar	1,26	0,04	
Qishloq xo'jaligi	52,2	1,8	1,6
Qurilish	15,1	0,5	0,3
Transport va aloqa	170,2	5,9	5,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	32,3	1,1	1,2
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	76,1	2,6	3,0
Noishlab chiqarish tarmoqlari	504,7	17,4	19,3
Uy-joy qurilish	291,3	10,0	12,9
Kommunal xo'jalik	91,6	3,2	1,1
Sog'liqni saqlash	29,9	1,0	1,7
Ta'lim	41,2	1,4	1,6
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	50,7	1,8	2,0

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 2397,9 mlrd. so'mi yoki 82,6 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, noishlab chiqarish tarmoqlariga 504,7,0 mlrd. so'm yoki 17,4 foizi yo'naltirildi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 291,3 mlrd. so'mi yoki 57,7 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2014 yil yanvar-sentyabrida umumiy maydoni 517,0 ming kv.m. bo'lgan 3372 ta xonadon (2013 yil yanvar-sentyabriga nisbatan 94,2 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 167,5ming kv.m. (118,5 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va chet el mablag'lari hisobiga umumta'lim maktablarini, musiqa va san'at maktablari hamda bolalar sporti ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya ishlari uchun 26,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 5,2 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 63,1 foizini tashkil qildi va 3 ta musiqa maktabi, 8 ta bolalar sporti ob'ektlari yangidan ishga tushirilib, 2426 o'quvchi o'ringa ega bo'lgan 11-ta umumta'lim maktablari rekonstruksiya bilan chiqarildi. Bundan tashkari 8,9 mlrd. sum mablag' hisobidan 14 ta umumta'lim maktablari va 1 ta bolalar sporti ob'ektlari kapital ta'mirdan chiqarildi.

Oliy ta'lim muassasalarini, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarini qurish, rekonstruksiya qilish ishlarida davlat byudjeti, oliy ta'lim muassasalarini moddiy texnika bazasini shakllantirish, ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash fondlari va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan 14,3 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2,8 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 34,7 foizini tashkil qildi va Qoraqalpoq Davlat Universitetining 520 o'quvchi o'rinlik 5-o'quv bloki, 400 o'rinlik 3-talabalar yotoqxonasi, Amudaryo tumanidagi 60 o'quvchi o'rinlik xizmat ko'rsatish kasb-xunar kolledji, Qonlikul tumanidagi 130 o'rinlik pedagogika kasb-xunar kolledji yotoqxonalarida rekonstruksiya ishlari tugatildi. Bundan tashqari 6,7 mlrd sum mablag' hisobiga Qoraqalpoq Davlat Universitetining sport saroyi, 6 ta kasb-xunar kolledji, 1 ta akademik litseylarda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini rekonstruksiya qilish ishlari uchun ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash jamg'armasi mablag'i hisobidan 20,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 4,0 foizini va sog'liqni saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 67,2 foizini tashkil qildi. Buning hisobiga 240 o'rinlik va 200 qatnov quvvatiga ega bo'lgan 4 ta sog'liqni saqlash ob'ektlari ishga tushirildi.

Kommunal qurilish sohasida 146,4 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 36,4 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi, bu 2013 yil yanvar-sentyabriga nisbatan mos ravishda 107,9 foizni va 121,3 foizni tashkil qildi. Foydalanishga topshirilgan ichimlik suvi tarmoqlarining 41,6 foizi va gaz tarmoqlarining 28,8 foizi qishloq joylariga to'g'ri keldi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 8,9 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobiga 0,8 mlrd. so'm, davlat byudjeti hisobidan 8,1 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag'lari hisobiga 0,6 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.


Qurilish faoliyati. 2014 yil yanvar-sentyabrda 680,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 110 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 80,4 foizi yangi qurilish, korxonalarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 12,3 foizi kapital, 7,1 foizi joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlariga toʻgʻri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 600,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, qurilish ishlarining umumiy hajmida 88,3 foizni (2013 yil yanvar-sentyabriga nisbatan 0,4 foizga kupaygan) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



IV-CHORAK


2014 yil yanvar-dekabrda respublikaning asosiy kapitalini koʻpaytirishga 3840,3 mlrd. soʻm miqdorida investitsiyalar kiritildi, oʻsish surʻati 143,4 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

Jami	3840,3	2,5	35,8	49,3	3,7	5,6	0,3	2,8
shu jumladan mulkchilik shakllari boʻyicha:								
davlat	442,9	21,4	23,9	2,2	1,6	48,2	2,7	-
nodavlat	3397,4	-	37,3	55,4	4,0	0,1	-	3,2

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni oʻzlashtirish quyidagi maʼlumotlarda ifodalanadi:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida



Iqtisodiyot tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rinishda:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	3840,3	100,0	100,0
Ishlab chiqarish tarmoqlari	3134,9	81,6	77,4
Sanoat	2663,7	69,4	64,7
shu jumladan:			
-yoqilg'i-energetika	2567,5	66,86	56,5
-metallurgiya	0,1	0,01	0,03
-kime va neft-kimyxo sanoati	67,1	1,7	3,1
-mashinasozlik	1,4	0,04	0,03
-engil sanoat	7,3	0,19	3,1
-oziq-ovqat sanoati	10,0	0,3	0,2
-qurilish materiallari	8,6	0,2	1,6
-boshqalar	1,7	0,1	0,14
Qishloq xo'jaligi	72,5	1,9	2,0
Qurilish	22,7	0,6	0,6
Transport va aloqa	227,7	5,9	6,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	44,6	1,1	1,6
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	103,7	2,7	2,2
Noishlab chiqarish tarmoqlari	705,4	18,4	22,6
Uy-joy qurilish	430,5	11,2	14,6
Kommunal xo'jalik	118,4	3,1	2,5
Sog'liqni saqlash	39,9	1,0	1,6
Ta'lim	43,5	1,2	1,7
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	73,1	1,9	2,2

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 3134,9 mlrd. so'mi yoki 81,6 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, noishlab chiqarish tarmoqlariga ,705,4 mlrd. so'm yoki 18,4 foizi yo'naltirildi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 430,5 mlrd. so'mi yoki 61,0 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2014 yil yanvar-dekabrda umumiy maydoni 754,2 ming kv.m. bo'lgan 4914 ta xonadon (2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 99,6 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 214,9 ming kv.m. (96,7 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va chet el mablag'lari hisobiga umumta'lim maktablarini, musiqa va san'at maktablari hamda bolalar sporti ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya ishlari uchun 26,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,8 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 60,9 foizini tashkil qildi va 3 ta musiqa maktabi, 6 ta bolalar sporti ob'ektlari yangidan ishga tushirilib, 2426 o'quvchi o'ringa ega bo'lgan 11-ta umumta'lim maktablari rekonstruksiya qilingan. Bundan tashkari 8,9 mlrd. sum mablag' hisobidan 14 ta umumta'lim maktablari va 1 ta bolalar sporti ob'ektlari kapital ta'mirdan chiqarildi.

Oliy ta'lim muassasalarini, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarini qurish, rekonstruksiya qilish ishlarida davlat byudjeti, oliy ta'lim muassasalarini moddiy texnika bazasini shakillantirish, ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va

jixozlash fondlari va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan 17,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2,5 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 41,1 foizini tashkil qildi va Qoraqalpoq Davlat Universitetining 2320 o'quvchi o'rinlik 2 va 5-o'quv bloki, 400 o'rinlik 3-talabalar yotoqxonasi, Amudaryo tumanidagi 60 o'quvchi o'rinlik xizmat ko'rsatish kasb-xunar kolledji, Nukus shahrida 30 o'quvchi o'rinlik ixtisodiyot va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolledjlarida, Qonlikul tumanidagi 130 o'rinlik pedagogika kasb-xunar kolledji yotoqxonalarida rekonstruktsiya ishlari tugatildi va Nukus shahrida 330 ta o'quvchi o'rinlik va 100 o'rinlik yotoqxonaga muljallangan yangi tasviriy sanaat litsey internat ishga tushirildi. Bundan tashqari 7,1 mlrd sum mablag' hisobiga Qoraqalpoq Davlat Universitetining sport saroyi, 6 ta kasb-xunar kolledji, 1 ta akademik litseylarda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini rekonstruktsiya qilish ishlari uchun ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash jamg'armasi mablag'i hisobidan 23,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,4 foizini va sog'liqni saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 59,1 foizini tashkil qildi. Buning hisobiga 1000 o'rinlik va smenasiga 500 qatnov quvvatiga ega bo'lgan 9 ta sog'liqni saqlash ob'ektlari ishga tushirildi.

Kommunal qurilish sohasida 177,0 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 49,3 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi, bu 2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan mos ravishda 85,3 foizni va 98,0 foizni tashkil qildi. Foydalanishga topshirilgan ichimlik suvi tarmoqlarining 40,7 foizi va gaz tarmoqlarining 31,9 foizi qishloq joylariga to'g'ri keldi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 10,4 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobiga 1,0 mlrd. so'm, davlat byudjeti hisobidan 8,3 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag'lari hisobiga 0,8 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.


Qurilish faoliyati. 2014 yil yanvar-dekabrida 917,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 82,5 foizi yangi qurilish, korxonalarni rekonstruktsiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 10,9 foizi kapital, 6,6 foizi joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 807,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, qurilish ishlarining umumiy hajmida 88,0 foizni (2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan 0,6 foizga kupaygan) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



Ko'rib chiqildi:

- 🏠
- 🏢
- 📧

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar](#)

va tuman hokimliklari

Hujjatlar Respublika

mehmonlariga Elektron

hukumat Interaktiv davlat

xizmatlar